

MILLIY TIKLANISH DAVRIDA AHMAD DONISH ILMIY MEROSIGA
MUNOSABAT

Miltiqboyev Bobir Zokirovich

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy tiklanish davrida Ahmad Donish ilmiy merosiga bo'lgan munosabat masalasi tahlil etiladi. Tadqiqotda mutafakkirning ma'rifatparvarlik g'oyalari, jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlari hamda milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi ilmiy-falsafiy merosining qayta baholanish jarayoni xususida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, milliy tiklanish, ilmiy meros, ma'rifatparvarlik, milliy ong, madaniy meros, ijtimoiy tafakkur, tarixiy xotira, qadriyatlar, ma'naviy rivojlanish.

Mustaqillik yillarida milliy ma'naviyatni tiklash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ahmad Donish milliy merosini tiklash va uning g'oyalari ilmiy qarashlari O'zbekistonning yangi davrida yangicha talqin qilinib, ilmiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonning turli ilmiy muassasalarida Ahmad Donishning hayoti va ijodi bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Akademiklar va tadqiqotchilar uning ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'rganib, zamonaviy jamiyat uchun ahamiyatini tahlil qildilar. Shuningdek, Toshkentda o'zbek va qozoq mutafakkirlariga bag'ishlangan konferensiyalar o'tkazilib, Donishning falsafiy qarashlari muhokama qilindi. Ahmad Donishning ma'naviy merosini ommalashtirish maqsadida uning asarlari nashr etilib, ta'lim muassasalarida o'qitila boshlandi. Bu orqali yosh avlodga milliy qadriyatlar, ma'rifatparvarlik va adolatli jamiyat qurish g'oyalari singdirilmoqda. Shuningdek, Donishning hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar tayyorlandi.

Hayot va jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Tafakkurda o'zgarish bo'lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o'zgarish bo'lishi dushvor. Istiqlol davrining yuzaga kelishi ham shuning mahsuli. Ma'lumki, o'z navbatida har bir jamiyat o'z muammosini yuzaga keltiradi, shunga muvofiq insoniyatning hayotga qarash tarzini ham o'zgartiradi. Bu ruhiyat bilan bog'liq masaladir. 70 yil davomida ma'naviyat, milliy axloq asosi bo'lgan dinidan, o'tmishda o'zini kim bo'lganligini namoyon qilish qudratiga ega bo'lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo'lgan xalq istiqoldan keyin bunga muyassar bo'lgach, unda o'zidan, o'z millatidan g'ururlanish tuygusi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo'ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo'ladi. U hamma narsani yorqin ko'radi, mohiyatini to'g'ri anglaydi. Bu borada birinchi

Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deydi: “Odamlarda o’zligini anglash, milliy g’urur, oriyat, o’tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o’z qo’limizga olganimizdan g’ururlanish kabi tuygular kamol topyapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapti”¹. Bu fikr bugungi kun madaniy merosga ham tegishlidir.

Ma’lumki, hayotda, jamiyatda ro’y bergan o’zgarish, albatta, milliy madaniy merosda o’z aksini topadi. Bu narsa, ayniqsa, falsafiy qarashlar va asarlarda yorqinroq ifodalanadi. Bugungi dunyoqarash kechagi dunyoqarashdan tubdan farq qiladi. Kechagi ijtimoiy falsafiy qarashlarda ijtimoiylashgan, voqealar zahirida ko’proq hayot ziddiyatlari ko’rsatilgan bo’lsa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida o’z nigohini insonning botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg’ularini ochib berish borasida kishini o’zini o’ziga tanitdi. Buning asosiy sababi inson ruhining murakkab tabiatini teran va to’laroq ochish, shuningdek, ta’sirliroq ifodalash bilan belgilanadi. Chunki bunga bugundan har qachongidan ham ko’ra ehtiyoj sezilyapti.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy madaniy merosni qayta tiklash masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy bog’ining ochilishi ham milliy ma’naviyatni tiklashga bo’lgan e’tibordir. “Adiblar xiyoboni ochilishida bugunning yoshlari qayerda qaysi sohada o’qishidan qat’iy nazar yuragiga adabiyot kiritish va bunda adabiyotimiz tarixida munosib o’rin tutgan adiblar asarlarini o’rganish va targ’ib etish zarurligini ta’kidladi”- yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev².

Mamlakatimizda milliy ma’naviyatni tiklashga bo’lgan e’tiborning kuchayishi albatta yoshlarning milliy o’zligini anglashga, ularning qalbida milliy g’urur, vatanparvarlik, ajdodlar merosiga hurmatni shakllantirishga yordam beradi. “Havas qilsa arziydigan ulug’ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo’ladi”, degan qat’iyat bilan³ O’zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Insonning madaniyati, ma’naviyati uning o’qigan kitoblari orqali aks etadi. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog’liq. Ma’rifatli oilalarda kitobga e’tibor farzandlar tarbiyasida qo’llaniladi. Zero, kitob ma’naviyatning moddiy shakli ekani hech kimga sir emas.

¹ Каримов И.А Юксак маънавият енгилмас куч. -Т.:, Маънавият 2008 йил. 67-б.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Миромоновичнинг Алишер навойи номидаги “Адиблар хиёбони”нинг очилиш маросимидаги сўзлаган нутқи. 2020 йил 22 май. Халқ сўзи № 107-сон

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувда сўзлаган нутқи. 2017 йил 3 август Халқ сўзи № 118-сон

Nega desangiz kitoblar insonlarga hayotni qanday yaxshilashni, bir-biriga mehribon bo'lishni o'rgatadi. Yaxshi kitob o'qigan kishi o'zini kuchliroq, aqlli roq, insonparvarroq bo'ladi. Kitob o'qish — aqlni charxlash demakdir.

Shu ma'noda yurtimizda ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalash, ayniqsa, yoshlarni milliy ma'naviy meros, kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'zbek madaniy merosi ham dunyo ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi sifatida asrlar davomida sayqallanib, takomillashib borayotir.

Milliy ma'naviy meros xalqimizning tarixini, qadriyatlarimizni asrlardan asrlarga olib o'tayotgan hayotimizning ajralmas bo'lagi ekan, bu borada Prezidentimiz rahnamoligida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, buyuk adabiyot namoyondalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Yurtimizda adabiyotni keng yoyishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish va yoshlarni kitobga o'rgatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2019 yil 19 mart kuni "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish va xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha 5 muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida"gi qo'arida ham yoshlarning kitob mutolaasiga bo'lgan muhabbatini oshirish yuzasidan alohida ko'rsatmalar berildi, shundan kelib chiqib, tanlov oldi respublikamizning barcha hududlariga "Yosh kitobxon" ko'rik tanlovini o'tkazilishi boshlandi. Bu albatta yoshlarning kitobga bo'lgan mehrini kuchaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari 2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 14 dekabr 2020 yildagi VM-781-sonli qaror⁴larning qabul qilinishi bu yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan.

Ayni vaqtda respublikamizning turli hududlarida atoqli adiblar nomi bilan ataladigan 9 ta Ijod maktabi faoliyat yuritib, ularda 1495 nafar o'quvchi yoshlar tahsil olyapti. Ijod maktablarida jami 32 ta ijodiy to'garak mavjud bo'lib, ular adabiyotga oid 8 xil yo'nalishda 1300 nafar o'quvchini qamrab olgan.

O'tgan o'quv choraklarida ijod maktablari miqyosida o'tkazilgan 80 ga yaqin mahorat darslarining aksariyati onlayn shaklda bo'lganiga qaramay, o'quvchilarda katta

⁴ www.lex.uz 2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида"ги 14 декабр 2020 йилдаги VM-781-сонли қарори



qiziqish uyg'otdi. Mashg'ulotlarni Yozuvchilar uyushmasi a'zolari va oliy o'quv yurtlarining tajribali o'qituvchilari olib bordi.

Shu o'rinda aytish joizki, 2021–2022-o'quv yilida barcha ijod maktablarida mahorat darslarini samarali tashkil etish, ustoz-shogird an'analari asosida iste'dodli yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida O'zbekiston xalq yozuvchilari, shoirlari, tajribali adabiyotshunos va tilshunos olimlar biriktirildi.

Yozuvchilar uyushmasining Prezident ta'lim muassasalari agentligi bilan hamkorlikdagi qo'shma qaroriga ko'ra, maktablarda mahorat darslari avvaldan belgilangan mavzularda amalga oshiriladi. Bundan tashqari mamlakatimizda buyuk shoir va mutafakkirlarning yoshlarimiz qalbida chuqur joy olishlari uchun respublikamiz turli hududlarida ularning nomiga maktablarini tashkil etilishi ham bu davlatimiz tomonidan milliy ma'naviy merosni tiklashga bo'lgan e'tibor va hurmatni ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda shoir, tarixnavis, tarjimon va davlat arbobi bo'lgan olimlarning ijodini targ'ib qilish, ularning to'la asarlar to'plamini nashr etish ishlari amalga oshirilmoqda. 2020-2021 yillarga mo'ljallangan ushbu loyiha doirasida ta'kidlash kerak-ki, mazkur loyiha doirasida chop etilayotgan asarlar ilk marta e'lon qilinmoqda. "...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgani"⁵ soha mutaxassislaridan yanada ma'suliyatli bo'lishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tiklanish davrida Ahmad Donish ilmiy merosiga bo'lgan munosabat tubdan yangicha mazmun kasb etdi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari, jamiyatni isloh qilishga qaratilgan qarashlari va milliy o'zlikni anglashga oid fikrlari zamonaviy sharoitda qayta baholanib, o'zining dolzarbligini yana bir bor namoyon etdi. Ahmad Donish merosi nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda milliy qadriyatlarni tiklash, yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, mutafakkirning ilmiy merosini chuqur o'rganish, uni zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish milliy tiklanish jarayonining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А Юксак маънавият енгилмас куч. -Т.:, Маънавият 2008 йил. 67-б.

⁵ www.lex.uz Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Миромоновичнинг Алишер навоий номидаги “Адиблар хиёбони”нинг очилиш маросимидаги сўзлаган нутқи. 2020 йил 22 май. Халқ сўзи № 107-сон

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувда сўзлаган нутқи. 2017 йил 3 август Халқ сўзи № 118-сон

4. www.lex.uz 2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 14 декабр 2020 йилдаги ВМ-781-сонли қарори

5. www.lex.uz Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.